



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil
yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar - iyun)

66,7%



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi**

3 616,1
ming so'm




**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi**

51,7%




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- iyul holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar - iyun)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- iyul holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar - iyun)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar - iyun oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar - iyun oylari)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar - iyun oylari)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati ¹⁾	3 319,6	100,0	111,4
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1 435,2	43,2	114,1
Shirin	45,6	1,4	115,5
Yangiyer	242,2	7,3	117,4
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	282,0	8,5	103,2
Guliston	144,9	4,4	107,7
Mirzaobod	147,3	4,5	109,9
Oqoltin	123,8	3,7	109,6
Sardoba	130,0	3,9	109,7
Sayxunobod	143,3	4,3	106,4
Sirdaryo	465,6	14,0	110,7
Xovos	159,7	4,8	107,1

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar - iyun oylari)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar - iyun oylari)

Hajmi, ming so'mda O'sish sur'ati

Guliston shahri

14 351,6

110,6%

Yangiyer shahri

5 024,1

114,5%

Sirdaryo tumani

3 381,2

108,8%

Shirin shahri

2 350,9

114,9%

Oqoltin tumani

2 210,6

108,0%

Boyovut tumani

2 021,6

101,3%

Sardoba tumani

1 841,4

108,0%

Mirzaobod tumani

1 822,3

107,8%

Guliston tumani

1 813,8

105,6%

Sayxunobod tumani

1 724,9


105,0%

Xovos tumani

1 553,6


105,2%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar - iyun oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxona subyektlarining ulushi **51,7** foizni, shu jumladan, **23,6** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar - iyun oylari)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar - iyun oylari)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	3 319,6	100,0	111,4
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	201,4	6,0	115,0
Moliyaviy xizmatlar	1 068,4	32,2	110,5
Transport xizmatlari	410,7	12,4	118,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	380,3	11,5	116,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	99,0	3,0	115,1
Savdo xizmatlari	798,2	24,0	109,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	82,2	2,5	111,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	126,0	3,8	112,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	83,0	2,5	104,8
Ijara xizmatlari	53,6	1,6	116,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	76,2	2,3	112,7
Shaxsiy xizmatlar	68,6	2,1	104,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	30,4	0,9	115,3
Boshqa xizmatlar	221,9	6,7	108,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar - iyun oylari)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar - iyun oylari, mlrd. so'mda)

Guliston shahri	669,5
Sirdaryo tumani	82,9
Boyovut tumani	73,3
Oqoltin tumani	45,2
Sayxunobod tumani	43,5
Sardoba tumani	36,6
Guliston tumani	36,2
Xovos tumani	34,8
Yangiyer shahri	26,6
Mirzaobod tumani	11,6
Shirin shahri	8,2

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar - iyun oylari)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar - iyun oylarida 93,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **62,7** foizni yoki **669,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **92,6 %**.

Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **103,5** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **117,4 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar - iyun oylari)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar - iyun oylari)





¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

⚙ O'sishi

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar - iyun oylari)

2024- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **380,3** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **11,5 %** ni tashkil etdi.



● **116,4%** **Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**
(2024- yil yanvar - iyun oylari)



● **117,7%** **Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi**
(2024- yil yanvar - iyun oylari)

● **117,5%**

● **117,1%**

● **116,6%** **61,1 %**

● **118,4%** **Yo'lovchi tashish**

● **117,2%** **38,9 %**

● **117,4%** **Yuk tashish**

● **116,7%**

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2024- yilning yanvar-iyun

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **64,9** foizni tashkil etdi.




Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar - iyun oylari)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar - iyun oylari)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-iyun** oylarida ularning ulushi **93,6** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar - iyun oylari)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar - iyun oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

✦ O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar - iyun oylari)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **66,8 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar - iyun oylari)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar - iyun oylari)

**2024- yilning
yanvar-iyun**

o'ylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **29,3** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar - iyun oylari)





Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar - iyun oylari)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **97,3** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar - iyun oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sish sur'ati

2024- yilning yanvar - iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **92,2** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar - iyun oylari)




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar - iyun oylari)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar – iyun oylari)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – iyun oylari, mlrd. so'mda)




2020- yilning yanvar – iyun oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **28,1** mlrd. so'mga oshib, **53,6** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar - iyun** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **41,6 %** ni tashkil etdi.




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar – iyun oylari)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 28,7 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar – iyun oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

Shaxsiy xizmatlar dinamikasi (yanvar - iyun oylari)



Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar – iyun oylari, mlrd. so'mda)



2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **12,3** mlrd. so'mga oshib, **68,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **77,7** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromatlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.